Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA JAHON TAJRIBASI



Kambarova Sh. M.

I. f. B. f. d. (PhD),

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda keyingi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, rivojlanishning salbiy ta'sir ko'rsatadigan to'siqlarini bartaraf etib, chet el tajribasidan respublikaning eksport salohiyatini oshirishda, Yangi O'zbekiston strategiyasini rivojlantirish masalalari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: litsenziya, raqobatbardoshlik, innovatsiya, investitsiya, konsalting, audit, sug'urta, raqamlashtirish, elektron tijorat.

Abstract: The article discusses the development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan in subsequent years, increasing export potential, liberalizing the economy, creating a favorable business environment, eliminating obstacles that negatively affect development, increasing the export potential of foreign countries, and outlines the issues of developing a new strategy for Uzbekistan.

Key words: license, competitiveness, innovation, investment, consulting, audit, insurance, digitalization, e-commerce.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане в последующие годы, повышения экспортного потенциала, либерализации экономики, создания благоприятной деловой среды, устранения препятствий, отрицательно влияющих на развитие, повышения экспортного потенциала зарубежных стран, обозначены вопросы разработки новой стратегии Узбекистана.

Ключевые слова: лицензия, конкурентоспособность, инновации, инвестиции, консалтинг, аудит, страхование, цифровизация, электронная коммерция.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakli, yetakchi o'rinni egallab turibdi. O'zbekiston iqtisodiyotining aksariyat turlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yetakchilik qilayotganini ko'rsatyapti. Bugungi kunda respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi, yo'lovchi tashish, savdo va qurilishdagi ulushi eng yuqori hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 56 foizidan ortig'i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xissasiga to'g'ri kelmoqda va ularning eksportdagi ulushi esa 28,6 foizni tashkil etmoqda. "2022–2026-yil-larga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish¹ singari ijrosini ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini takomillashtirishni talab etadi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning soni yildan yilga oshib borishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2022-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) respublikamiz bo'yicha jami 411203 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 76436 taga yoki 22,8 % ko'paydi.

2021-yil 31-avgustda 554-sonli "O'zbekistonda global koronavirus pandemiyasi davrida zarar ko'rgan tadbirkorlik subyektlarini favqulotda qo'llab-quvvatlash loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

1 Kambarova Sh. M. O'zbekistonda innovatsiya jarayonlari rivojlanishi sharoitida kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish. Mono-grafiya. T.: 2023-yil.



qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi².

Prezident Sh. M. Mirziyoyevning 22-avgust 2022-yil "Xalqaro kongress markazida" tadbirkorlar bilan ochiq muloqot davomida eksport qiluvchi korxonalar soni 7,5 mingta va umumiy eksport hajmi esa 30 foizga ko'payganligini aytib o'tdilar.

Milliy iqtisodiyot eksport salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlaridan biri - sifatli, yuqori texnologik mahsulotlar bilan tashqi bozorga chiqishdir. Bunda hal qilinishi zarur bo'lgan muammolardan biri milliy iqtisodiyotning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda raqobatbardoshligini oshirish hamda mamlakat iqtisodiyotida raqobat muhitini yaratishdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va raqobat muhitini shakllantirish bo'yicha jahon tajribasi boy va xilma-xil bo'lsa-da, ular bir-birlaridan ushbu jarayonni amalga oshirish mexanizmi, usullari va vositalari jihatidan farq qiladi. Mazkur tajribani o'rganish, uning ijobiy tomonlaridan mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda samarali foydalanish iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Umuman olganda, raqobat muhitini shakllantirishni davlat tomonidan tartibga solishni 2 yo'nalishda ko'rib chiqish mumkin:

Tadbirkorlik, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun umumiy shart-sharoitlarni barpo etish;

Kichik va xususiy korxonalarni xo'jalik sharoitlariga moslashishni ta'minlash maqsadida ularni qo'llab-quvvatlash va imtiyozlar taqdim etish.

Bu ikkala yo'nalish o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kichik tadbirkorlikning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Shu sababdan Prezidentimiz tomonidan o'tkazilgan ochiq muloqot natijasida bir qator o'zgarishlar kiritildi va muxokamadan o'tkazildi, masalan bir yillik aylanmasi 1 mlrd. so'mgacha bo'lgan korxonalar mikrobiznesga, 10 mlrd. so'mgacha bo'lgan kichik biznes va 100 mlrd. so'mgacha bo'lgan korxonalar o'rta biznes toifasiga kirishini aytib o'tildi va qabul qilindi.

Bundan kelib chiqib, 2023-yil 1-yanvardan boshlab mikrobiznes uchun aylanmadan olinadigan soliqning amaldagi 4-25 % bo'lgan stavkalari o'rniga yagona 4 % soliq stavkasi joriy etildi³.

Mamlakatlar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda chet el tajribasi ahamiyati ortib bormoqda. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning rivojlanishini faol qatnashishiga erishish muhimdir. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznesning salmog'i ortib borayotganligini ta'kidlash lozim. AQSh YIM (yalpi ichki mahsulot)da kichik biznesning ulushi 50 %, Yaponiyada 55 %, Xitoyda 60 %, Yevropa ittifoqi mamlakatlarida 60-70 % ni tashkil etadi. Kichik va o'rta korxonalarning bu mamlakatlar eksportidagi ulushi ham salmoqli, jumladan, Germaniya va Niderlandiyada bu ko'rsatkich 40 %ni, Italiyada 20-25 %ni, AQSh va Yaponiyada 15 % ga teng.

Rivojlangan mamlakatlar yirik kompaniyalari tomonidan eksport qilinuvchi yuqori texnologik mahsulotlarning butlovchi qismlarning katta qismi kichik va o'rta korxonalarda ishlab chiqarilishini hisobga olsak, ularning eksportdagi xissasi ikki barobar ortadi. Bu mamlakatlarda kichik biznes korxonalari eksportining asosini texnologiyalar savdosi tashkil etadi, jumladan, AQSh da sotilgan litsenziyalarning 50% kichik korxonalarga to'g'ri keladi. Yaponiyada bu ko'rsatkich 55 %ni tashkil etadi⁴. Ushbu mamlakatlarda albatta, birinchi o'rinda innovatsion tadbirkorlik turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4862-sonli "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori, 2021-yil 14-yanvardagi PQ-4949 sonli "2021-yilda O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2021-yilni 21-aprelidagi "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbiarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va chet el tajribasidan foydalanish doirasida ko'rib chiqishimiz lozimdir.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi keyingi 30 yil ichida deyarli 70 % ga yetgan. Jumladan, bu ko'rsatkich AQSh da 38 foizdan 52 foizga, Yaponiyada 47 foizdan 55 foizga, Yevropa ittifoqi mamlakatlarida umumiy holda 58 foizdan

2 "O'zbekistonda global koronavirus pandemiyasi davrida zarar ko'rgan tadbirkorlik subyektlarini favqulodda qo'llab-quvvatlash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zb.Resp. VMQ 554-son, 2021-yil 31-avgust, <https://lex.uz/ru/docs/5611000>

3 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'z.Resp. PF-60-son 2022-yil 28-yanvar, <https://lex.uz/docs/5841063>

4 Global innovatsion indeks 2020 <https://issek.hse.ru/mirror/pubs/share/396184358.pdf>



67 foizga yetgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining ushbu mamlakatlardagi korxonalar umumiy sonidagi ulushi esa 92,5 foizdan past emas⁵.

Kichik biznes subyektlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi xorijiy tadbirkorlarni xalqaro bozorlarda raqobat ustunligiga ega bo'lishiga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda kichik biznes subyektlari mahsulotlarining 25,0 % dan ko'prog'i jahon bozorlarda raqobatbardosh hisoblanadi va bu salmoq yil sayin ortib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarning jahondagi eksport hajmining deyarli uchdan bir qismi kichik biznes subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda. Jumladan, AQShda kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimida eksportga yo'naltirilgan kichik firmalarga alohida e'tibor beriladi. Ushbu davlatda kichik firma o'z mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqadi. Kichik biznes subyektlari xissasiga AQSh eksportining 30,0 % dan ko'prog'i to'g'ri keladi.

AQShda eksportni kengaytirishning davlat strategiyasi, AQShning Savdoni rivojlantirishni muvofiqlashtiruvchi qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi. Unda yuqori texnologiya va fan sig'imiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan kichik firmalarni qo'llab-quvvatlash markaziy o'rin egallaydi. Ushbu qumita tomonidan 2035 yilga borib kichik biznes subyektlarining mamlakat eksporti hajmidagi ulushini hozirgi 30,0 %dan 50%ga yetkazish strategik rejaları ishlab chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Eksportga yo'naltirilgan kichik firmalarni qo'llab-quvvatlash uchun, ayniqsa, Kichik biznes ma'muriyati katta imkoniyatlarga ega. Ushbu ma'muriyatning kichik korxonalarning eksport imkoniyatlarini kengaytirishga uslubiy, texnikaviy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatishga davlat etilgan Xalqaro savdo departamenti tashkil etilgan.

Shuningdek, qabul qilingan qarorlarda kichik biznes sohasida ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, eksport salohiyatini oshirish, aholini ish bilan ta'minlash va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish hamda xorij tajribasidan foydalanishda, taklif va tavsiyalar hamda tegishli statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishda, statistik usul va kuzatuvlardan, analiz va sintez, qiyosiy va tizimli usullardan keng foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yaxshilash, rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va xorij tajribasini tahlil qilishda mahalliy va xorij olimlarining xissasi kattadir. Jumladan, N. Shlyk⁶, O. Saginova⁷, V. Sutyagin⁸, mahalliy olimlardan G. Abduraxmonov⁹, N. Sirojiddinov¹⁰, U. Gafurov¹¹, K. Kurpayanidi¹² kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari kichik biznes sohasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

Departament tomonidan "Xalqaro savdo uchun kreditlar" dasturi ishlab chiqilgan. Eksportga yo'naltirilgan kichik korxonalar davlat tomonidan har taraflama qo'llab-quvvatlanayotganligi uchun ham AQShda bunday firmalar soni yiliga 10,0-12,0 % ga ularning eksport hajmi esa, 18,0 % ga ortib bormoqda.

Kichik biznes xizmati tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlarga moliyaviy yordam ko'rsatadi. Uning kafolatlari asosida mamlakat barcha banklari tomonidan eksportga yo'naltirilgan kichik firmalarga 2 yildan 10 yilgacha muddatga 5,0 ming funt sterlingdan 100,0 ming funt sterlinggacha (ikki yil davomida muvafaqqiyatli tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotganlar uchun esa 250,0 ming funt sterlinggacha kredit ajratiladi¹³.

O'zbekiston Respublikasida eksportni rag'batlantirish agentligi ochilgan bo'lib, 2021-yildan boshlab moliyaviy ko'magini ko'rsatishni boshlagan.

- 5 Kuliyev N. "Kichik va xususiy biznesni rivojlantirishda jahon tajribasidan foydalanish. "Iqtisodiy va ta'lim" ilmiy jurnal 2012. №4
- 6 Шлык Н. Л., Титова С. Ю. Система поддержки экспорта малого бизнеса (российский и зарубежный опыт) // Власть и управление на Востоке России. – 2018. – №. 2 (83). – С. 21-27.
- 7 Сагинова О. В. Особенности интернационализации малого и среднего бизнеса // Человеческий капитал и профессиональное образование. – 2018. – №. 3-4. – С. 34-39.
- 8 Сутягин В. В. Особенности интернационализации фирм малого и среднего бизнеса // Педагогика и междисциплинарные исследования. – 2020. – Т. 14. – №. 2. – С. 6-18.
- 9 Abduraxmonova G. Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta'minlash. –T.: "Iqtisodiyot"-2014. 114-b.
- 10 Сирождидинов Н. Проблемы повышения эффективности внешней торговли Узбекистана. – Т.: УМЕТ, 2004.
- 11 G'afurov U. V. Kichik biznes subyektlari eksport faoliyati samaradorligini oshirishning uslubiy masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №5, sentabr-oktabr,
- 12 Курпаяниди К. И. Особенности развития предпринимательства в индустриальном секторе экономики // Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Фергана, 2008.
- 13 Abduraxmonova G. Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta'minlash. –T.: "Iqtisodiyot"-2014. 114-b.




1-jadval: Ilg'or xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni

Mamlakatlar	Kichik biznes subyektlari soni (ming)	1000 kishiga to'g'ri keladigan kichik biznes soni	Kichik biznesda bandlarning umumiy bandlikdagi ulushi (%)	Kichik biznesning YIMdagi ulushi (%)
Buyuk Britaniya	2 930	46	56	50–53
Germaniya	2 290	37	69,5	50–54
Italiya	3 920	68	71	57–60
Fransiya	1 980	35	54	55–62
AQSh	19 300	74	54	50–52
Yaponiya	6 450	50	78	52–55

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 50–67 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hisobiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich AQShda 50–52 foizni, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 63–67 foizni, Yaponiyada 52–55 foizni tashkil etadi. MDH mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ancha past bo'lib hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bandlik muammosini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda kichik biznesning klassik mamlakatlari hisoblangan Yaponiya (78 foiz) va Italiya (71 foiz) eng yuqori ko'rsatkichlarga ega. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jami bandlar sonidagi ulushi bo'yicha O'zbekiston (78,2 foiz) ancha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa, Rossiyada mazkur ko'rsatkich atigi 25,6 foizga teng, xolos.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YIMdagi ulushi bo'yicha qayd etilgan ko'rsatkichlar aksariyat bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlaridan yuqori hisoblanadi. Jumladan, ushbu ko'rsatkich Italiyada 60,0 foizni, Yaponiyada 55,0 foizni, Germaniyada 54,0 foizni, Buyuk Britaniyada 53,0 foizni tashkil etadi. MDH mamlakatlari guruhidan Qozog'istonda 25,6 foiz, Rossiya Federatsiyasida esa 20,0 foizga teng¹⁴ (1-rasm).



1-rasm: Ayrim mamlakatlar YIMda Kichik biznesning ulushi, jamiga nisbatan foizda

Kichik biznes sohasiga taaluqliligining mezonlari har bir mamlakatda turlichadir. Masalan, AQSh da xodimlar soni 100 kishigacha hamda yillik aylanmasi hajmi 3 mln.dan 12 mln. AQSh dollargacha bo'lgan subyektlar kichik biznes subyektlari hisoblanadi. Xodimlar soni 100 dan 500 kishigacha bo'lgan subyektlar esa o'rta biznes subyektlari deb yuritiladi. Shuningdek, Rossiyada kichik biznes subyektlariga xodimlar soni 100 kishigacha hamda yirik tushum hajmi 400,0 mln. Rublgacha bo'lgan subyektlar taaluqli bo'ladi.

Yevropada kichik biznes eng taraqqiy etgan mamlakat Italiya hisoblanadi. Ushbu davlat tajribasi milliy iqtisodiyot barqaror o'sishini va o'tkir muammo orttirib borayotgan ishsizlik muammosini hal etishning asosiy vositasi sifatida kichik biznesni rivojlantirish ekanligiga yaqqol dalolatdir. Mamlakatdagi 4 mln.dan ortiq korxonaning 98 % kichik biznes subyektlaridir. Mikrofirmalarning o'zi jami korxonalarning 60% ini tashkil etadi.

14 Management of small business entities Week 1: The role and importance of small business entities in the economy https://www.researchgate.net/publication/341088343_Management_of_small_business_entities



Italiyada xammasi bo'lib, 3,5 mln.ta kichik korxona faoliyat ko'rsatadi. Ularda 13 mln. Aholi yoki ish bilan bandlarning deyarli 79 % i mehnat qiladi. Ular xissasiga mamlakat yalpi milliy mahsuloti hajmining 52 % to'g'ri keladi. 2-3 kishi ishlaydigan kichik xunarmandchilik firmalari esa Italiya eksportining 18 % ini ta'minlamoqda¹⁵.

So'nggi yillarda Fransiyada kichik biznes subyektlarining faoliyati tubdan o'zgardi. Agar bu tuzilmalar egalari avval faqat arzon va eskirib qolgan jixozlarni xarid qilishga qurbi yetgan bo'lsa, hozirgi paytda ayniqsa, ishlab chiqarish sohasidagi kichik korxonalar faoliyati yuksak texnologiyalarga asoslangan.

Mamlakatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydigan maxsus tashkilotlar tuzilgan. Ularning eng yetakchisi Fransiya tadbirkorlarining harakati hisoblanadi. Bu harakatga 400 tarmoq federatsiyasini birlashtirgan kichik biznes konfederatsiyasi ham kirgan.

Yaponiyada kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi 70 tadan ko'proq qonun amal qiladi. Bugungi kunda ham mamlakat parlamenti har yili kichik biznesni moliyalash, unga investitsiyalar jalb qilish, turli imtiyozlar berishga taalluqli 3-4 tadan qonun qabul qiladi. Ularda iqtisodiyotning bu sektori mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, eksport salohiyatini kuchaytirish va boshqa xo'jalik vazifalarini o'zlari hal etishlari, davlat esa buning uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishi lozimligi belgilab qo'yilgan.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda eksportni qo'llab-quvvatlash bo'yicha eksportni qo'llab-quvvatlovchi agentliklar orqali amalga oshiriladi. Ushbu agentliklar tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari qatorida to'g'ridan-to'g'ri eksportga kredit berish, davlat kafolatlari berish, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini subsidiyalashni qayd etish mumkin. Eksportni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy bo'lmagan chora-tadbirlariga konsalting, ko'rgazmalar tashkil etish, eksport qiluvchilarga xorijiy ko'rgazmalarda ishtirok etish imkoniyatini berish, tashqi bozorlar va eksportdagi to'siqlarni tahlil qilish va boshqalar kiradi. Biroq so'nggi paytlarda agentliklarning vazifalari va yo'nalishi o'zgardi, xususan, eksportchilarning qiymat zanjirlarida ishtirok etish dasturlari, aylanma mablag'larni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari alohida rivojlanmoqda.

Kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bugungi kunda agentliklar faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Agentliklarning 80 % ga yaqini Yevropa mamlakatlarida kichik korxonalar eksportini qo'llab-quvvatlaydi, aksariyat agentliklar ta'minot zanjirlarida ishtirok etish dasturlarini ham amalga oshirishni boshlaydilar. AQSh, Kanada, Turkiya, Xitoy, Vengriya va Meksikada eksportchilar uchun ta'minot zanjirini qo'llab-quvvatlash dasturlari amalga oshirilmoqda va Buyuk Britaniya, Niderlandiya va Norvegiyada ishlab chiqila boshlandi. Shu bilan birga, AQSh va Xitoyda bu dasturlar faqat qisqa muddatli, Vengriyada uzoq muddatli, qolgan mamlakatlarda esa qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlashni qamrab oladi.

Ushbu dasturlar bo'yicha xizmatlarni oluvchilar orasida kichik korxonalar faqat AQSh, Shvetsiya va Shvetsariyada ishlaydi.

Yaponiya agentligining ta'kidlashicha, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash 2020-yillarda diqqat markazida bo'lgan beshta asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi va Koreya agentligi 100 ta kichik korxonalarni xorij eksport bozorlarida raqobatlashish uchun inkubatsiya qilishni maqsad qilgan "Yashirin chempionlar" tashabbusini boshladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, agentliklar kichik korxonalar faoliyatidagi tavakkal qilishga moyil bo'lib bormoqda, chunki kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlash bilan agentlik uchun risklar keskin oshadi. Xatarlarni qabul qilish darajasi yuqori bo'lgan xorijiy eksportni qo'llab-quvvatlash agentliklari orasida Xitoy (Sinasure, EXIM Bank of China), Germaniya (Euler Hermes), Fransiya (Bpifrance), Italiya (SACE) agentliklarini ta'kidlash kerak¹⁶.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro tajribaga muvofiq, ishbilarmonlik muhitining yaxshilanishi uchun biznesning rivojiga xizmat qiladigan infratuzilma, kichik biznes korxonalari faoliyatini moliyaviy, mehnat axborot resurslari bilan ta'minlash, shuningdek, transport, konsalting, audit, sug'urta va boshqa xizmatlar faolligini oshirish zarur.

Shunday qilib, xorijiy mamlakatlarning tajribasiga tayangan holda kichik biznesning eksport faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- Davlatning kichik biznes bilan chambarchas bog'liq bo'lishi;
- Kichik biznes uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish;
- Kichik biznes tashqi iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirishning qonuniy asoslarini yaratish;
- Kichik biznesni qo'llab-quvvatlovchi institutlar faoliyati samaradorligini oshirish;

15 Abduraxmonova G. Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta'minlash. —T.: Monografiya, "Iqtisodiyot"—2014. 83-b.

16 National Export Initiative <https://2009-2017.state.gov/e/eb/cba/nei/index.htm>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "O'zbekistonda global koronavirus pandemiyasi davrida zarar ko'rgan tadbirkorlik subyektlarini favqulodda qo'llab-quvvatlash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zb.Resp. VMQ 554-son, 2021-yil 31-avgust, <https://lex.uz/ru/docs/5611000>
2. 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'z.Resp. PF-60-son 2022-yil 28-yanvar, <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Глобал инновацион индекс 2020 <https://issek.hse.ru/mirror/pubs/share/396184358.pdf>
4. Шлык Н. Л., Титова С. Ю. Система поддержки экспорта малого бизнеса (Российский и зарубежный опыт) // Власть и управление на Востоке России. – 2018. – №. 2 (83). – С. 21-27.
5. Сагинова О. В. Особенности интернационализации малого и среднего бизнеса //Человеческий капитал и профессиональное образование. – 2018. – №. 3-4. – С. 34-39.
6. Сутягин В. В. Особенности интернационализации фирм малого и среднего бизнеса //Педагогика и междисциплинарные исследования. – 2020. – Т. 14. – №. 2. – С. 6-18.
7. Kuliyeв N. "Kichik va xususiy biznesni rivojlantirishda jahon tajribasidan foydalanish. "Iqtisodiy va ta'lim" ilmiy jurnal – 2012. №4
8. Abduraxmonova G. Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta'minlash. –T.: "Iqtisodiyot"-2014. 114-b.
9. Management of small business entities Week 1: The role and importance of small business entities in the economy https://www.researchgate.net/publication/341088343_Management_of_small_business_entities
10. Abduraxmonova G. Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta'minlash. –T.: Monografiya, "Iqtisodiyot" – 2014. 83-b.
11. Kambarova Sh. M. O'zbekistonda innovatsiya jarayonlari rivojlanishi sharoitida kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish. Monografiya. – T.: 2023-yil. 144-b.
12. Сирожиддинов Н. Проблемы повышения эффективности внешней торговли Узбекистана. – Т.: УМЭД, 2004.
13. G'afurov U. V. Kichik biznes subyektlari eksport faoliyati samaradorligini oshirishning uslubiy masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – №5, sentabr-oktabr.
14. Курпаяниди К. И. Особенности развития предпринимательства в индустриальном секторе экономики// Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Фергана, 2008.
15. National Export Initiative <https://2009-2017.state.gov/e/eb/cba/nei/index.htm>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.